

UDK: 632.77:632.8

ZAXIRADAGI QISHLOQ XO'JALIK MAXSULOTLARIGA ZARAR KELTIRUVCHI KEMIRUVCHILAR

O'simliklarni karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Eshmurzaev Jasur Elmuratovich eshmurzayevjasur207@gmial.com. katta ilmiy xodim,
Avazov Sanjar Salimjonovich kichik ilmiy xodim, Shaymanov Mashrabjon Shucreddin
o'g'li kichik ilmiy xodim, Yakubova Soyema laborant

Annotation: *This article highlights the high damage caused by rodents in the production, storage, processing, shelf life of stored food products and ensuring their safety at this stage. Information about rodents is that they are an existence that makes the product useless for consumption, their fertility, active distribution, the ability to quickly occupy food storage areas, even the ability to live in an open field and damage has been obtained.*

Keywords: *food, safety, products, storage, distribution, food storage, damage*

Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan maxsulotlar - paxta, galla, makkajuxori, arpa, suli, guruch, pilla, quritilgan mevalar tayyorlash punktlari va mahsulotni qayta ishlash korxonalarining omborxonalarida iste'mol qilinguncha yoki ekishga qadar bir necha oylar, ayrim hollarda bir necha yillar davomida saqlanadi. Qishloq xo'jalik maxsulotlarini omborlarda saqlash, qayta ishlash davrida ko'p turdagi zararkunandalardan (xasharot va kanalar) tashqari kemiruvchilar ham katta zarar keltiradilar. Kemiruvchilarni yashash joylarida ularga qarshi kurash olib borish shart, chunki ular yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi, qishloq xo'jalik maxsulotlariga katta iktisodiy zarar keltirishiga sabab bo'ladigan jonzotlardir.

Kemiruvchilarni D.I.Mendelev shunday tariflaydi kemiruvchilar hammahor sifatida har qanda tirik yoki jonsiz, oldidan nima chiqsa yedigon qayetmasdir. Kalamushlarning zarari asosan o'zining kurak tishlari bilan nima har qanday mahsulotni kemirishga hamda o'zidan chiqadigan badbuy xiddan saqlanayotgan har qanday mahsulotni iste'molga yaroqsiz bulib qolishiga sababchi bo'lishiga qodir (Traxanov, 1967). Oziq-ovqat maxsulotlarini tayyorlash va saqlash davrida ularni xavfsizligini ta'minlash muxim masalalardan biri hisoblanadi. Don va don madsulotlarini zaxiraga

qo'yishdan oldin omborxonalarimiz sanitariya xolatini yaxshilashda tozalikka rioya qilish, omborxona ichi, atroflarini chikindilardan tozalash, dezinfeksiya qilish, maxsulot saqlanadigan ob'ektlarga kemiruvchilarni kirib qolishiga yul qo'ymaslik kerak. Kemiruvchilar chidamli bo'lgani uchun muxofaza qilinadigan maydonning atrofi 3-4 metr kenglikda himoya vositalari bilan ishlab chiqilishi lozim. Omborxonalarning polli va devorlari sementlanib hech qanday tirqishlar qolmasligi, eshiklar germetishni yopiladigan bo'lishi zarur. Undan tashqari munta'zam ravishda omborxona maydonlari, dala shiyponlari kemiruvchilardan himoyalangan bo'lishi hamda aniqlab tekshirib turilishi kerak.

Bundan tashqari kemiruvchilarni omborxona, binolarga kirishini oldini olish, sanitariya xolatini yaxshilash, profilaktik chora tadbirlarni (kemiruvchilar yuradigan yullarni aniqlab, yo'llariga zaxarli yem qo'yish, kimyoviy vositalarni qo'llash) bu esa kemiruvchilar sonini kamaytirishga olib keladi. Omborxona va binolarga, vagonlarga kirib olganlarida qiska muddat ichida saqlanayotgan don maxsulotlari, un, konditer, chigit, pilla va boshqa maxsulotlarni zararlaydi. Shu joylarda ularni yashashiga ko'payishiga yo'l ko'ymaslik kerak, aks xolda kurash olib borish qiyinlashadi. (ular serpusht. yangi joyga tez urnasha oladilar, qulay sharoit bulsa tez ko'payadilar). Oldini olish (profilaktika) hamda qirib yo'qotish chora tadbirlarini o'tkazishda kimyoviy kurash usuli eng radikal usul ekanligini e'tiborga olgan holda kemiruvchilarga qarshi kurash yuqori samarali bo'lishiga asos bo'ladi. Zaxiradagi maxsulotlar va ularda faoliyat ko'rsatayotgan kemiruvchilar "Mirishkor Abdulahat Teshaev" fermer xo'jaligining 2 ta omborxonasida zaxiradagi bug'doy hamda boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlar kemiruvchilardan zararlanganligi aniqlandi.

Kalamushlarga qarshi kimyoviy preparatlarning samaradorligi

Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani "Mirishkor Abdulahat Teshaev" fermer xo'jaligi

Jadval

T/r	Vaiantlar	Tayyorlangan Zaxira yemlar	Samaradorlik kuniga				Jami
			3	7	14	21	
1.	Talon Singenta	1kg bug'doyga (40gr)	2	1	3	1	7
			27,9%	13,8%	43,2%	13,8%	100%
2.	Rated -2	Bug'doy doni va zahar miqdori (1kg 40gr)	1	2	1	2	6
			18,0%	32,0%	116,0%	232,0%	6200%

3.	nazorat	-	6	6	6	6	6
----	---------	---	---	---	---	---	---

Shu omborxonada kalamushlarga qarshi kimyoviy rodentitsidni sinash bo'yicha олиб борилган тажриба натижаларига ко'ра Talon Singenta rodentitsidini 1kg bug`doy doniga 40 gr. qo`shib aldoqchi yem tayyorlab qo`yilgan variantlarda samaradorlik tajribaning uchinchi kunida 27,9 %, hisob kunining 7 - 14 - kunlarida 13,8 - 43,2 % gacha, 14 - kunida 13,8% ni tashkil etdi. Jami 21 - kuni kuzatuvlar natijasida 100% biologik samaradorlikka erishildi. Maxsulotlarni uz vaqtida kemiruvchilardan to`g`ri himoyalashni rejalashtirish va amaliyotda qo`llash ularni sonini kamaytirishda o`ta muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1-Maxmudxodjaev N.M., Zaxira maxsulotlari zararkunandalari va ularga karshi kurash. Qo`llanma. Toshkent-2016. 1-140 b.
- 2-М.Раззаков, М.Акмалова, С.Якубова., Кемирувчилар-захира маҳсулотининг зараркунандаси. ЎХҚИТИ. Тошкент-2019. 223-225 б.
- 3-Белеев И.М., - Борба с вредителями маслосемян при хранении на складах 1933. Б.55.
- 4-Траханов Д.Ф., Борба с грызунами наасиветноводческих фермах. Изд. "Колос".М. 1967.
- 5- Scott, H. Rodent-borne disease control through rodent stoppage [Text] / H. Scott // Pt I, II. - Pest Contr. - 1963.- vol. 31. - № 8. - p. 30-46; № 9. - p. 18-28.
- 6- Richards, C. G. Field trials of bromadiolone against infestation of warfarin-resistant Rattus norvegicus [Text] / C. G. Richards // J. Hyg. - 1981. - vol. 86.-№3.-p. 363-387.